



MAMLAKATIMIZDA SUD-HUQUQ TIZIMIDA ISLOHATLAR

Avazov Jamshid Ahad o'g'li

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti 3-bosqich talabasi

Avliyoqulov Adham Alisherovich

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti

Jinoyat huquqi va fuqarolik protsessi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda mamlakatimizda sud-huquq sohasida olib borilayotgan islohatlar, jamiyat hayotida umumyurisdiksya sudlarining ahamiyati, sud tizimida kutilayotgan yangicha o'zgarishlar va soha rivojida olib borilayotgan chora-tadbirlar haqida so'z boradi. Shuningdek, mazkur maqolada "O'zbekiston – 2030" strategiyasining 5 ta ustuvor yo'nalishlari, sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishi, "SMART SUD", "Raqamli sud" konsepsiyalari asosida ishlarni bosqichma-bosqich to'liq elektron shaklda yuritish, "Sudyalar maqomi to'g'risida" Qonun ishlab chiqish kabi dolzarb mavzular o'rinni olgan.

Kalit so'zlar: Oliy sud, "Bir sud – bir instansiya" tamoyili, "SMART SUD" konsepsiysi, "yashil" iqtisodiyot, «O'zbekiston – 2030» strategiyasi, "Raqamli sud" konsepsiysi, "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi, "Sudga elektron murojaat yuborish", "Sudga murojaat namunalari", "Davlat boji kalkulyatori", "Elektron to'lov tizimi", "Sud qarorlarini onlayn olish" va boshqalar.

Kirish. O'tgan qisqa davrda O'zbekistonda barcha sohalar qatori sud-huquq yo'nalishida ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Xususan, "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya



qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon qabul qilindi. Unda belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta‘minlash borasida ko‘rilgan kompleks chora-tadbirlar tom ma’noda sud-huquq sohasidagi islohotlarning yangi bosqichini boshlab berdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Islohatlar. Xususan, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta‘minlash, odil sudlovga erishish darajasini oshirish, sud-huquq tizimini isloh qilish sohasida davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlari belgilandi. Yagona sud amaliyotini yo‘lga qo‘yish maqsadida Oliy sud va Oliy xo‘jalik sudi fuqarolik, ma’muriy, jinoiy, va iqtisodiy sud ish yurituvni sohasida sud hokimiyatining yagona oliy organi — O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudiga birlashtirildi.

Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarining ishonchli sud himoyasini ta‘minlash maqsadida davlat organlari qarorlari va mansabdor shaxslarining g‘ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) ustidan beriladigan shikoyatlarni, ya’ni ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni ko‘rib chiqishga vakolatli ma’muriy sudlar tashkil etildi.

Sudlar tuzilmasi ham zamon talablariga mos ravishda takomillashtirilib, viloyat va unga tenglashtirilgan fuqarolik ishlari, jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar va iqtisodiy sudlar negizida sudyalarning qat’iy ixtisoslashuvini saqlab qolgan holda viloyat darajasidagi umumyurisdiksiya sudlari tashkil etildi.

Investorlar huquqlarini sud orqali himoya qilishning samarali tizimini yaratish maqsadida protsessual qonunchilikka iqtisodiyot sohasida investorlar hamda davlat organlari o‘rtasidagi investitsiya shartnomalaridan kelib chiqadigan nizolar va raqobatga oid ishlarning sudlovga taalluqliliga oid normalar kiritilib, yirik investorlarga taalluqli nizolar va raqobatga oid ishlar, taraflarning xohishiga ko‘ra, Oliy sudning investitsiyaviy nizolarni hamda raqobatga oid ishlarni ko‘rish bo‘yicha sudlov tarkibi tomonidan ko‘rishi mumkinligiga oid tartib belgilandi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va
lavozimlarga

tavsiya etish
bo‘yicha oliv
malaka
komissiyasi
tugatilib,
sudyalar
hamjamiyati-
ning organi
hisoblanadigan
va O‘zbekiston
Respublikasida



sud hokimiysi mustaqilligining konstitutsiyaviy prinsipiga rioya etilishini ta’minlashga ko‘maklashadi-gan O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashi tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabr kuni Oliy Majlisga yo‘llagan navbatdagi Murojaatnomasida ta’kidlanganidek, so‘nggi 4 yil davomida sud-huquq sohasini isloh etish borasida dadil qadamlar qo‘yildi. Bu yo‘nalishdagi ustuvor masalalar yuzasidan 40 dan ortiq qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi. Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish borasida strategik ahamiyatga ega muhim qadam tashlandi.

Jumladan, suds mustaqilligini ta’minlash maqsadida, Sudyalar oliv kengashi tashkil qilindi. Shuningdek, Oliy sud va Oliy xo‘jalik sudi birlashtirilib, Oliy sud faoliyati takomillashtirildi. Hududlardagi xo‘jalik suds iqtisodiy sudsifatida qayta tashkil etildi, 71 ta tumanlararo, tuman (shahar) iqtisodiy sudsiga ishlarni birinchi instansiyada ko‘rib chiqish vakolati berildi. Sudya lavozimida faoliyat yuritishning ilk marotaba besh yillik, keyin o‘n yillik muddati va



muddatsiz davri belgilandi. Sudlarning o‘z moliyaviy, moddiy-texnik masalalarini mustaqil hal qilish boradagi vakolatlari adliya organlaridan olinib, Oliy sudga o‘tkazildi. Sud tomonidan jinoyat ishini qo‘srimcha tergovga qaytarish instituti bekor qilindi. Shaxsning jinoyat sodir etishdagi aybdorligi faqat sud muhokamasida o‘z isbotini topgan dalillarga asoslanishi kerakligi qat’iy belgilab qo‘yildi. Qiynoqqa solish, ruhiy, jismoniy bosim o‘tkazish va boshqa zo‘ravonlik holatlari qat’iyan taqiqlandi.

Sudda ishlarni ko‘rib chiqishda inson huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va taraflarning tortishuvchanlik tamoyilini ro‘yobga chiqarish maqsadida jinoyat ishlari bo‘yicha sndlarda dastlabki eshituv instituti joriy etildi. Sudlar faoliyatining shaffofligi, ochiqligi yo‘lida 10 mingdan ortiq jinoyat ishi sayyor sud muhokamalarida ko‘rib chiqildi. Ehtiyyot chorasi sifatida qamoqda saqlash va dastlabki tergovning eng yuqori muddatlari kamaytirildi.¹

Sudyalikka nomzodlarni tanlov asosida ishga qabul qilish mexanizmi joriy etilgani alohida e’tirofga loyiq. Ilk bor sudyalik lavozimiga nomzodlarni tanlash bo‘yicha imtihon jarayonlarini onlayn yoritib borish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, sudyalik lavozimiga birinchi marta tayinlanadigan nomzodlarni ko‘rib chiqish muqobililik asosida amalga oshiriladigan bo‘ldi. Albatta, malakali va yetuk sudyalar korpusini hamda sud apparati xodimlarini tayyorlashning yangi tizimi jamiyatda sud idoralariga bo‘lgan ishonchni oshirish,adolat barqarorligi va qonun ustuvorligini ta’minalash, tom ma’noda sudni “Adolat qo‘rg‘oni”ga aylantirish hamda odil sudlovnning yuqori darajaga ko‘tarilishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, investitsiyaviy nizolar va raqobatga oid ishlar faqat iqtisodiy sudlar tomonidan ko‘rib chiqiladigan bo‘ldi. Prokurorlarning barcha iqtisodiy sud majlislarida ishtirok etish huquqi bekor qilindi. Endi, bundan buyon prokuror faqat

¹ <https://uzmarkaz.uz/news/sud-huquq-sohasidagi-islohotlar-inson-qadrini-yuksaltirishdagi-orni>



qonunda nazarda tutilgan hollarda yoki prokurorning da'vo arizasi bilan qo'zg'atilgan ishlardagina ishtirok etishi mumkin.

Yana bir e'tiborga molik jihat shundaki, sud ishlarini yuritishda nazorat instansiysi tugatildi. Sud tizimida ortiqcha sud bosqichlarini bekor qilish orqali "Bir sud – bir instansiya" tamoyili, shuningdek, tumanlararo, tuman (shahar) sudlarning birinchi instansiya tarzidagi qarorlarini viloyat sudlari tomonidan, viloyat sudlarining apellyatsiya yoki cassatsiya sudi sifatida chiqargan qarorlarini esa O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudlov hay'ati tomonidan taftish tartibida qayta ko'rib chiqish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Aytish lozimki, bugungi globallashuv sharoitida raqamli texnologiyalar butun dunyo bo'ylab barcha sohalarga keng joriy etilib, insoniyat hayot tarziga jadal kirib bormoqda. Bu yo'nalishda samarali ishlarga qo'l urayotgan davlatlar tez taraqqiy etayotgani kuzatilmogda.

Strategiya. Ma'lumki, «O'zbekiston – 2030» strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili"da amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi va uni tasdiqlash to'g'risidagi prezidentning tegishli farmoni loyihasi keng jamoatchilik va ekspertlik muhokamalaridan o'tkazilmoqda.

Loyihada "O'zbekiston – 2030" strategiyasining 5 ta ustuvor yo'nalishi bo'yicha 2025-yil uchun amaliy chora-tadbirlar, normativ-huquqiy hujjatlar ro'yxati va har bir yo'nalish kesimidagi maqsadli ko'rsatkichlar nazarda tutilgan. Davlat dasturi loyihasining 4-yo'nalishi hisoblangan "Qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish" yo'nalishida 34 ta amaliy tadbir rejasi, 22 ta normativ-huquqiy hujjat loyihasi va 40 ta maqsadli ko'rsatkich nazarda tutilgan.

Xususan, loyihada Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta'minlash hamda sud-huquq islohotlarini bosh mezoniga aylantirish maqsadida sudlar faoliyatini raqamlashtirish ishlarini jadallashtirish ko'zlangan.



Hozir va kelajak. Bundan sudlar faoliyatida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, "SMART SUD" konsepsiysi asosida ishlarni bosqichma-bosqich to'liq elektron shaklda yuritish amaliyotini ishlab chiqish va Oliy sud huzurida Axborot texnologiyalari markazini tashkil etish ko'zda tutilgan. Sudlar faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish esa bir qator qulayliklarni vujudga keltiradi. Xususan, elektron hujjatlar aylanishini tezlashtirish, tegishli axborotlarni toplash, ishslash, tizimlashtirish va saqlanishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, sud muhokamasi ishtirokchilarini axborot tizimi orqali elektron shaklda xabardor qilish kabi qulaylik yaratadi.

Bugungi kunga kelib sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari-ning bir qator dasturlari tatbiq etildi. Xususan, sudlarga masofadan turib murojaat qilish, sud majlislarida video-konferensiya aloqa tizimi orqali ishtirok etish, sudyalar o'rtaida ishlarni avtomatik tarzda taqsimlash belgilandi.

Shuningdek, sud qarorlarini internet tarmog'ida e'lon qilish va uni fuqarolar oson olishi, ijro hujjatlarini elektron shaklda majburiy ijroga yuborish, har qanday

Судлар фаолиятига **сун'ий интеллект технологиялари** жорий этилади ва "**"SMART SUD"**" концепцияси асосида ишларни босқичма-босқич тўлиқ электрон шаклда юритиш амалиёти йўлга кўйилади.

"Судьялар мақоми тўғрисида"ги қонун лойихаси ишлаб чиқилади.

www.strategy.uz @dsc.uzb @dscuzbekistan @dscuzbekistan Development Strategy Center



yuridik va jismoniy shaxs da'vo ariza va shikoyatlarini my.sud.uz sayti orqali elektron ko'rinishda taqdim etishi mumkin.

Oliy sud tomonidan my.sud.uz sayti orqali "Sudga elektron murojaat yuborish", "Sudga murojaat namunalari", "Davlat boji kalkulyatori", "Elektron to'lov tizimi", "Sud qarorlarini onlayn olish" kabi interaktiv xizmatlarning yo'lga qo'yilganligi fuqarolarning murojaat qilish imkoniyatini kengaytirmoqda. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yilda "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori qabul qilinganligini qayd etish lozim. Mazkur hujjatga muvofiq, sun'iy intellekt texnologiyalari rivojlanishining joriy holati va xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalarini hisobga olgan holda mamlakatimizda sun'iy intellektni keng qo'llash, jadal rivojlantirish maqsad va vazifalari belgilandi.

Darhaqiqat, islohotlar aholining davlatga va sud-huquq tizimiga bo'lgan ishonchini yuksaltirib, jamiyatda ijtimoiy adolatni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Sudlar faoliyatini raqamlashtirish va "SMART SUD" konsepsiyasini joriy etish orqali odil sudlov sifatini yanada yaxshilash, fuqarolarning sudga bo'lgan ishonchini oshirish ko'zlangan. Bu, shubhasiz, xalq manfaati va inson qadr-qimmatini samarali himoya qilishga zamin yaratadi.

Bundan tashqari, sud protsessida sun'iy intellektdan foydalanish sudyaning tahliliy ishini optimallashtirish, protsessual tejamkorlik tamoyilini amalga oshirishni ta'minlashi mumkin. Bu esa nizolarni ko'rib chiqish vaqtini qisqartiradi. Shuningdek, sun'iy intellekt sud qarorlarini chiqarishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatolarni kamaytirish orqali qarorlarning asosliliginı yangi bosqichga olib chiqishga va sud ish yuklamasini yengillashtirishga xizmat qiladi.²

² https://uza.uz/oz/posts/smart-sud-konsepsiyasini-joriy-etishdan-qanday-maqsadlar-kozlangan_677963



Mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 27-fevral kuni sud faoliyatini yanada yaxshilash, ochiqlik va raqamlashtirish darajasini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.

Sud ishlarini yuritishda qog‘oz shaklidan butunlay voz kechish maqsadida “Raqamli sud” konsepsiysi amalga oshirilishi belgilandi. Buning uchun Oliy sud huzurida Axborot texnologiyalari markazi tashkil etilishi tasdiqlandi. U sudlarga zarur bo‘lgan axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlar yaratish, sun’iy intellektni joriy etish hamda axborot xavfsizligini ta’minlash bilan shug‘ullanishi aytib o’tildi.

Tadbirkorlik sub’yektlari bilan sudlar o‘rtasida elektron ma’lumot almashish tizimining yo‘lga qo‘yilishi esa ishlarni ko‘rib chiqish tezkorligi oshishga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari buning uchun sudlar va barcha aloqador tashkilotlarning axborot tizimlari integratsiyasi muhimligini, qulayliklarni odamlar sezishi kerakligini ta’kidladi.

Bu ishlarni kengaytirish, huquq-tartibot idoralari ma’lumotlarini sudlar bilan samarali bog‘lash bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.³

Taklif va chet tajribasi. “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi 2024-yil bo‘lib o‘tgan saylov oldidan sudyalar huquqlarini kafolatlash va ish yuklamalarini maqbullashtirish maqsadida “Sudyalar maqomi to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi qonunini ishlab chiqish tashabbusini ilgari surishdi.

Partiya vakillarining ta’kidlashicha, Polsha, Rossiya, Germaniya va Yaponiya kabi davlatlarda sudyalar maqomiga oid alohida qonunlar mavjud. Partiya O‘zbekistonda ham bunday qonun qabul qilinishi zarurligini ta’kidlaydi.

“Sudyalar maqomi to‘g‘risida” qonunning qabul qilinishi bir qator muhim jihatlarni o‘z ichiga oladi:

1. Sudyalarning vazifa va majburiyatları: qonun sudyalarning aniq vazifalari, huquq va majburiyatlarini belgilab beradi.

³ <https://kun.uz/29940249>



2. Ish yuklamalarini maqbullashtirish: sudyalarning ish yuklamalari qonun asosida tartibga solinadi.

3. Tayinlash va ozod qilish tartibi: sudyalar lavozimiga tayinlanish va ishdan ozod qilinishi qonunda aniq tartibga solinadi.

4. Tashqi ta'sirlardan himoya: sudyalar har qanday tashqi ta'sirlardan himoya qilinadi. Qonun ularning mustaqil va adolatli qaror qabul qilishlari uchun zarur himoyani ta'minlaydi.

5. Ijtimoiy imtiyozlar: sudyalarga nisbatan ijtimoiy imtiyozlar joriy etilib, korrupsiyaga qarshi choralar ko'rildi.

“Adolat” SDPning ta'kidlashicha, mazkur qonun loyihasi sud tizimini yanada mustaxkamlash, sudyalar mustaqilligini ta'minlash va ularning ijtimoiy

ҚОНУН УСТУВОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ, ХАЛҚ ХИЗМАТИДАГИ
ДАВЛАТ БОШҚАРУВИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЙЎНАЛИШИДА КЎЗДА
ТУТИЛАЁТГАН МУҲИМ ЧОРАЛАР

Қонун устуворлигини таъминлаш ва суд-хуқуқ тизимидағи ислоҳотлар

“ТАРАФДОД СТРАТЕГИЯСИ”
МАРКАЗ



Олий суд хузурида **Ахборот технологиялари маркази** ташкил этилади.



himoyasini
kuchaytirishga
qaratilgan.

Sudyalar ish
yuklamalarining

Ишни судга қадар юритиш босқичига **ахборот технологияларини** жорий этиш бўйича норматив-хуқуқий ҳужжат лойихаси ишлаб чиқилади.

“Ёш адвокатлар” жамоатчилик кенгashi тузилади.

www.strategy.uz @dsc.uzbekistan @dsc.uzb @dscuzbekistan @dscuzbekistan Development Strategy Center

maqbullashtirilishi esa sud ishlarini samarali tashkil etishga ko'makla-shadi. Tashabbus-korlar fikricha, ushbu qonun sud tizimiga ishonchni oshirishga va malakatda adolatni ta'minlashga yor-dam beradi.⁴

⁴ <https://zamin.uz/uz/jamiyat/137333-sudyalar-maqomiga-oid-yangi-qonun-ishlab-chiqish-taklif-qilinmoqda.html>



Mulohazali xulosa. Xulosa qilib aytganda, sud ishlarini yuritishni raqamlashtirish, my.sud.uz portalı orqali murojaat qilish ko'plab afzalliklarga bilan birga bir necha qulayliklarni yaratadi. Sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, ish sifatini ta'minlab, muayyan vazifalarni amalgaloshirishni soddalashtiradi.

So'nggi uch yil ichida mamlakatimizda sud-huquq sohasi isloh etilib, sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy asoslar yaratildi. Inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustunligiga asoslangan huquqiy tizim shakllandi.

Ayniqsa, bugungi kunda mamlakatimizda sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishchonchli himoya qilish, aholi o'rtasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishga xizmat qiluvchi profilaktika choralarini kuchaytirish, odil sudlovni samarali ta'minlash hamda sudlarning chinakam mustaqilligini yo'lga qo'yish bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda. Ushbu amalga oshirilgan ishlar natijasida odil sudlov jarayonida inson huquqlarini himoya qilish darajasi yangi bosqichga chiqdi desak yanglishmagan bo'lamiz.

Mamlakatimizda barcha sohalarda olib borilayotgan o'zgarish va islohotlar, avvalo inson manfaatlari, uning orzu-umidlari, ezgu niyatlarini ro'yobga chiqarishdek xayrli maqsadga xizmat qilmoqda. Bu inson huquqlari ustuvorligi, har bir shaxsning davlat himoyasida ekanligi to'g'risidagi konstitutsiyaviy prinsiplarini amalga oshirishni kafolatlashga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentini Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida inson huquq va erkinliklarini kafolatli himoya qilish, qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan islohotlar keyingi yillarda ham izchil davom ettirilishi belgilandi. Murojaatnomada muhtaram Prezidentimiz "Adolat bu – davlatchilikning mustahkam poydevoridir. Adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashda esa sud hokimiyati hal qiluvchi o'rinni egallaydi"



deb ta'kidladi. 2021-yildan boshlab joriy etiladigan “bir sud – bir instansiya” tamoyili sud qarorlarining adolatli, qonuniy va barqarorligini ta'minlashda bosh mezon bo‘lishi ko‘rsatib o‘tildi.

Mazkur tamoyilning qonunchiligidan joriy etilishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-iyuldagagi “Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6034-sonli Farmoni bilan belgilangan edi.

Ushbu islohotlar mamlakatning sud-huquq tizimi faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari ishonchli himoya qilinishini ta’minalash, aholining odil sudlovga bo‘lgan ishonchini yanada mustahkamlash imkonini bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 100-103-betlar; “O‘zbekiston” 01.05.2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar tog‘risida” Qonuni 28.07.2021.
3. “Ma’muriy sud ish yurituv” fanidan o’quv-uslubiy majmua, N. Yangiboyev 7-9-betlar; “Termiz”-2024.
4. “Fuqarolik protsessual huquqi” fanidan o’quv-uslubiy majmua, N. Yangiboyev 8-bet; “Termiz”-2024.
5. TSUL – Library. “Konstitutsiyaviy nazorat va konstiyusiyaviy odil sudlov”. Darslik; M.M.Abdullayeva, 15-16-betlar; “Toshkent”-2024.

Internet manbalari:

6. <https://uzmarkaz.uz/news/sud-huquq-sohasidagi-islohotlar-inson-qadrini-yuksaltirishdagi-orni>
7. https://aza.uz/oz/posts/smart-sud-konsepsiyasini-joriy-etishdan-qanday-maqсадлар-коzланган_677963
8. <https://kun.uz/29940249>
9. <https://zamin.uz/uz/jamiyat/137333-sudyalar-maqomiga-oid-yangi-qonun-ishlab-chiqish-taklif-qilinmoqda.html>